

**TURKIYA RESPUBLIKASIDA “ADOLAT VA TARAQQIYOT” PARTIYASI DAVRI:  
DAVLAT VA DIN ALOQALARINING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI****Nuridinov Doston Axatjon o‘g‘li**TDSHU “Sharq mamlakatarisiosati  
va xalqaro munosabatlar” kafedrası

Mustaqil tadqiqotchisi

**Annotatsiya:** Turkiyaning XXI asr boshidagi tashqi siyosati o‘tgan asrdagidan deyarli tubdan farq qildi. Uning oldida Bolqondan tortib, Yaqin Sharq, Kavkaz va Markaziy Osiyogacha bo‘lgan yangi dunyo ochildi. Bu bilan nafaqat mamlakat ichida, balki chet elda ham yangi siyosiy yondashuv paydo bo‘ldi. Bu ko‘p millatli Usmonli dasturini Turkiyani Islom va Usmonli merosi bilan yarashtirishga ilhomlantirdi va bu yangi siyosiy qarash Yevropa Ittifoqi va AQSh bilan mustahkam munosabatlarga haddan tashqari e‘tibor qaratdi. Turkiyaning tarixan e‘tibordan chetda qolgan mintaqaviy munosabatlariga muvozanatni tiklash 2002 yil oxirida Turkiyada Adolatli Taraqqiyot partiyasi (AKP) hokimiyatga kelganidan so‘ng, Turkiyaning yangi rahbarlari Turkiyaning mintaqaviy muhitdagi rolini qayta tiklashga kirishdilar. Bu jarayonning boshlanishi Yaqin Sharqdagi qo‘shnilari bilan yaxshi munosabatlar o‘rnatish edi. Turkiyaning tashqi siyosatining samarali va ta‘sirli bo‘lishi uchun yangi tashqi siyosat nuqtai nazari, ayniqsa, ichki siyosiy va iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash nuqtai nazaridan ichki o‘zgarishlarning ahamiyatiga urg‘u berdi. Buni inobatga olgan Turkiya rahbariyati Yaqin Sharqda faol diplomatiya olib borishga, shuningdek, “nol muammo” siyosatini olib borgan holda qo‘shnilari bilan munosabatlardagi muammolarni kamaytirish yoki tugatishga tayyorligini ma‘lum qildi.

**Kalit so‘zlar:** Yaqin Sharq, Turkiya, Eron, Saudiya Arabistoni, Isroil, raqobatbardosh ko‘p qutblilik, xalqaro tashkilotlar, ko‘p tomonlama institutlar, mintaqaviy tartib, mintaqaviy xavfsizlik kompleksi.

**Аннотация:** Внешняя политика Турции в начале XXI века почти радикально отличалась от политики предыдущего столетия: перед ней открылся новый мир - от Балкан до Ближнего Востока, Кавказа и Центральной Азии. Вместе с ним появился новый политический подход не только внутри страны, но и за рубежом, вдохновляющий Аосманским наследием, и в этом новом политическом видении был сделан чрезмерный акцент на прочных отношениях с ЕС и США, которым в прошлом уделялось мало внимания Восстановление баланса в региональных отношениях Турции, которым в прошлом уделялось мало внимания После прихода к власти в Турции Партии справедливого развития (ПСР) в конце 2002 г. новые руководители Турции приступили к активизации роли Турции в региональной среде. Началом этого процесса стало установление хороших отношений со своими ближневосточными соседями. Для того чтобы внешняя политика Турции была эффективной и влиятельной, ее новое внешнеполитическое видение акцентировало внимание на важности внутренних преобразований, особенно в плане укрепления внутривнутриполитической и экономической стабильности. С учетом этого турецкое руководство заявило о готовности вести активную дипломатию на Ближнем Востоке, а также снизить или прекратить проблемы в отношениях со своими соседями, проводя политику "нулевых проблем".

**Ключевые слова:** Ближний Восток, Турция, Иран, Саудовская Аравия, Израиль, конкурентная многополярность, международные организации, многосторонние институты, региональный порядок, комплекс региональной безопасности.

**Abstract:** Turkey's foreign policy at the beginning of the 21st century was almost radically different from that of the previous century: a new world opened up before it - from the Balkans to the Middle East, the Caucasus and Central Asia. With it came a new political approach not only at home but also abroad, inspiring a multi-ethnic Ottoman program to reconcile Turkey with Islam and the Ottoman heritage, and this new political vision placed an overemphasis on strong relations with the EU and the US, which had little attention has been paid Restoring balance to Turkey's historically neglected regional relations After the Just Development Party (AKP) came to power in Turkey at the end of 2002, Turkey's new leaders set about reinvigorating Turkey's role in the regional environment. The beginning of this process was the establishment of good relations with its Middle Eastern neighbors. For Turkey's foreign policy to be effective and influential, its new foreign policy vision emphasized the importance of internal transformation, especially in terms of strengthening domestic political and economic stability. Taking this into account, the Turkish leadership has declared its readiness to conduct active diplomacy in the Middle East, as well as to reduce or end problems in relations with its neighbors, pursuing a “zero problems” policy.

**Key words:** Middle East, Turkey, Iran, Saudi Arabia, Israel, competitive multipolarity, international organizations, multilateral institutions, regional order, regional security complex.

Turkiya Respublikasida 2002 yil noyabrda bo‘lib o‘tgan saylovlarda “Adolat va taraqqiyot” partiyasi (“Adalet ve Kalkınma Partisi”) g‘alaba qozonib, bosh vazir lavozimiga A.Gul o‘tiradi. Zamonaviy Turkiya tarixida salkam 20 yildan buyon mamlakat siyosiy hokimiyati tepasida “Adolat va taraqqiyot” partiyasi turibdi. Aynan shu davrdan boshlab, Turkiyada din va davlat munosabatlarining yangi davri boshlandi deyish mumkin. 2001 yilda “Adolat va taraqqiyot” partiyasi (keyingi o‘rinlarda - ATP)ning siyosiy kuch sifatida paydo bo‘lishi ko‘plab omillarning natijasi sifatida qabul qilinadi: kamolchilik tuzumi siyosatining barbod bo‘lishi, jamoat hayotida individual taqvodorlikning paydo bo‘lishi, fuqarolik va diniy institutlarning rivojlanishi, tashqi globallashuv kabi omillar, Evropa Ittifoqi va Turkiya o‘rtasidagi munosabatlar, Anadolida konservativ biznes sinfining paydo bo‘lishi.

“Adolat va taraqqiyot” partiyasi davrida din va davlat munosabatlari bevosita partiyaning mafkurasi bilan bog‘liqdir. Dastlabki yillarda, partiyaning hokimiyat tepasiga kelishi Turkiyada dunyoviy tamoyilining yemirilishi sifatida baholangan. Boisi partiya vakillari va asoschilar bevosita diniy bilim sohibi bo‘lib, katta qismi diniy boshqaruv tamoyillarini kengroq joriy etilishiga moyil bo‘lgan, “siyosiy islom” (“Milliy qarash”) konpesepiyasining asoschisi N.Erbakan g‘oyalari ta’siri ostida siyosiy faoliyatga qadam qo‘ygan edi. N.Erbakan Turkiyadagi islomparast birinchi bosh vazir bo‘lib, u 1996-1997 yillarda hokimiyat tepasida bo‘ldi. Armiya bosimi ostida iste’foga chiqdi va u boshchiligidagi diniy “Farovonlik partiyasi” dunyoviy davlatni islomlashtirishga urinishi uchun Turkiya konstitutsiyaviy sudi tomonidan taqiqlandi. Uning o‘rniga islomparast “Fazilat partiyasi” (Fazilet Partisi) (1997-2001) tashkil etilgan.

“Adolat va taraqqiyot” partiyasi asoschisi R.T.Erdog‘an bo‘lib, u bevosita N.Erbakanning izdoshi sanaladi. Partiya 2001 yil 14 avgustda bir qator konservativ partiyalarning sobiq a‘zolari tomonidan tashkil etilgan. Bevosita yangi partiya a‘zolarining katta qismi taqiqlangan islomiy “Fazilat Partiyasi”ning a‘zolari, jumladan Abdulla Gul va Bulent Arynch partiyaning asosiy

qismiga aylandilar. “Fazilat Partiyasi” 2001 yil 22 iyunda Turkiya Konstitusiyaviy sudi tomonidan dunyoviy hokimiyatga qarshi partiya sifatida faoliyati ta’qiqlangan edi.

Shuningdek, partiyani yaratilishida Turgut Ozal tomonidan asos solingan “Vatan partiyasi”ning sobiq Jemil Chichek va Abdulkadir Aksu kabi bir guruh a’zolari muhim rol o’ynadilar. Shuningdek, ATP “Haqiqiy Yo’l” partiyasining bir qator a’zolarini ham o’z ichiga olgan, ular orasida Huseyin Chelik va Ko’ksal Toptan bor edi. ATP a’zolarining bir qismi, masalan, Kurshad Tuzmen, millatchilar edi. Ali Babacan, Selma Aliye Kavaf, Egemen Bagis va Mevlut Chavusho’g’li kabi ko’plab ATP a’zolari ilgari boshqa partiyalarga a’zo bo’lmaganlar. Bu odamlarning barchasi birgalikda Rajab Erdo’g’anga yangi partiya tuzishda yordam berishdi.

Ichki va tashqi omillardan tashqari, ATP asoschisi va asosiy figurasi bo’lgan R.T.Erdog’anning shaxsiyati alohida o’rin tutadi. R.Erdo’g’an va uning safdoshlari “Milliy qarash” uyushmasidan kelganiga qaramay, ushbu ikki shakllanish o’rtasida farqlar mavjud:

Birinchidan, ATP 2002, 2007 va 2011 yillarda bo’lib o’tgan parlament saylovlarida yuqori foizlar bilan uch marta g’alaba qozondi, bu siyosiy islom harakati mamlakatdagi chekka va periferik harakat emasligidan dalolat beradi.

Ikkinchidan, ATP siyosiy kun tartibiga nafaqat islomiy, balki dunyoviy masalalar ham kiradi. Partiya o’zini konservativ, Evropa va demokratiya harakati sifatida tutadi. R.Erdo’g’an va uning jamoasi “Milliy qarash” an’analari tarbiyalangan bo’lishiga qaramay, ular o’zlarini diniy tarfakashlik tarafdori deb bilishmaydi. R. Erdo’g’an “Financial Times” gazetasiga 2004 yil 3 dekabrda bergan intervyusida quyidagilarni ta’kidlaydi: "Biz konservativ demokratizm bizning konservativ demokratiya haqidagi tushunchamiz oilamiz qadriyatlariga asoslangan jamiyatimizning urf-odatlarini va an’anaviy qadriyatlariga murojaat qiladi. ... bu din haqida emas, demokratiya masalasi".

ATP “Milliy qarash” an’analari ajralib, islomni ijtimoiy-madaniy o’ziga xoslikning bir qismi sifatida ko’rsatdi. ATPning konservativ demokratiyasi siyosiy islomni, xususan, “Milliy qarash” ritorikasini rad etadi. Ular islomizm o’rniga bozor iqtisodiyoti, plyuralizm, qonun ustuvorligi va inson huquqlari kabi demokratik me’yorlar bilan axloq, milliy o’ziga xoslik, milliy g’urur tuyg’usi kabi konservativ qadriyatlarni sintez qilishni taklif qilmoqdalar. Liberalizm va taraqqiyot ATP milliy, madaniy va diniy o’ziga xoslik va uning qadriyatlarini Turkiya Respublikasi sharoitida saqlab qolish ikkita asosiy strategik yo’nalishdir. Shunday qilib, diniy omil muhim rol o’ynashni to’xtatadi. ATP rahbarlari bir necha bor siyosatni dinga asoslab bo’lmaydi, deb ta’kidladilar.

R.T.Erdog’anning so’zlariga ko’ra, din va siyosat o’rtasidagi munosabatlar quyidagicha: “Siyosiy partiyalarda din yo’q. Faqat alohida olingan shaxslar dindor bo’lishi mumkin. Aks holda, biz uni ishlatgan bo’lardik. Dinning o’rni va roli shu qadar muqaddaski, u siyosatning quroliga aylanib, o’z o’rnini egallay olmaydi”.

Shu jihatdan “Adolat va taraqqiyot” partiyasi “Musulmon birodarlari” kabi radikal qarashdagi siyosiy partiyalardan farqli o’laroq, mo’tdil islom partiyasi sanaladi. ATPning mafkuraviy shakllanishini iqtisodiy ma’noda liberal, ijtimoiy ma’noda islomiy deb xulosa qilish mumkin. Bu Turkiyadagi siyosiy islomning o’zgarishi. Ushbu o’zgarish ba’zi umuminsoniy qadriyatlarni sobiq islomchilarning siyosiy kun tartibiga bo’ysundiradigan o’quv jarayoni bilan amalga oshirildi. Boshqacha qilib aytganda, "dunyoviylikning turkcha versiyasi" o’z vaqtida bo’lgani kabi "muvaffaqiyatli loyiha bo’ldi", bu ko’plab odamlarni dinni siyosiy qoidalarning emas, balki e’tiqod va axloqning tizimi sifatida qabul qilishga olib keldi".

Yuqoridagi ma'lumotlarga asosan "Adolat va taraqqiyot" partiyasining siyosiy spektrdagi o'rni tahlil etilganda, u konservator ruhidagi o'ng-markaz partiyasi sanaladi. Garchi islomiy partiya mafkurasi elementlari mavjud bo'lsada, partiyaning islohotchilik va iqtisodiy liberalizm tamoyillari, fikrimizcha, dunyoviy hokimiyat tamoyiliga putur etkazmaydi. Demak partiyaning asosiy mafkurasi sifatida quyidagilarni keltirish mumkin

- ijtimoiy konservatizm;
- iqtisodiy liberalizm;
- yangi usmonchilik (neosmanizm).

Turkiyadagi hukmron "Adolat va taraqqiyot" partiyasi islomiy asosga ega noyob siyosiy birlikdir. Turk taqdiqotchisi I.Yilmaz ATPni quyidagicha tavsiflaydi: "ATP islomiy partiyalar uchun siyosiy ishtirok etish va siyosiy o'zgarishlarda, islomiylikni turkiy sharoitda g'ayriislomizmga aylantirishda siyosiy ishtirok etish va imkoniyatlarning muvaffaqiyatli hodisasidir"<sup>8</sup>. Eron versiyasi va al-Qoida ishidan farqli o'laroq, ATP harbiylashtirilgan tashkilot emas va hokimiyatni zabt etish usullarini rad etadi. Zo'ravonlik, diniy literalizm va harbiylashtirilgan tuzilmalarni kun tartibidan chiqarib tashlash ATP uchun dindorlikni plyuralizm, dunyoviylik va modernizmga moslashtirish uchun keng imkoniyatlar ochib beradi.

"Adolat va taraqqiyot partiyasi" islomiy partiyalar ildizi bilan aloqadorligi bois bir necha bor Turkiya konstitutsiyasida belgilangan sekulyarizmdan chetga chiqqanlikda ayblanib, partiyani taqiqlash bo'yicha bir nechta muvaffaqiyatsiz urinishlarga yuz berdi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, "Adolat va taraqqiyot" partiyasi diniy kadrlarga ega va davlatning din bilan muammoli aloqalariga tanqidiy nuqtai nazar bilan qaraydi. Biroq na partiya, na uning rahbari R.Tayip Erdo'gan laitsizmga qat'iy qarshi chiqmasa ham, ular uning ma'nosini qayta ko'rib chiqishni afzal ko'rishdi:

Birinchi, partiyaning hokimiyat tepasidagi ilk davrida avtoritar laitsizmni emas, balki demokratik laitsizmni qo'llab-quvvatlash birinchi o'ringa chiqdi;

Ikkinchi inson huquqlari va e'tiqod erkinligi himoya qilindi;

Uchinchi, dastlabki harakatlar Turkiya siyosatidagi asosiy muammo bo'lgan harbiy homiylikni yo'q qilishga qaratilgan edi, chunki bu ko'plab ijtimoiy muammolarni keltirib chiqardi.

To'rtinchi, ushbu davrda Evropa Ittifoqiga qo'shilish motivatsiyasi zarur islohotlarni amalga oshirishda muhim omil bo'ldi. Bundan tashqari, Turkiyada globallashuv oqibatlari yaqqol namoyon bo'lgan ushbu davrda diniy, etnik va madaniy guruhlar o'zliklarni tan olishni va huquqlarni tiklashni talab qildilar.

Beshinchi, diniy maydondagi ushbu yangi davrda nafaqat musulmon ko'pchilik, balki ozchiliklar va yangi diniy harakatlar ham siyosat ta'sirida edilar. Barqaror iqtisodiy o'sish avj olgan 2000 yillarda demokratik talablarga javoban hukumat musulmon ko'pchilik va ozchilik huquqlarini tiklashga qaratilgan qator islohotlarni amalga oshirdi. Bulardan eng muhimi, ko'pchilik musulmonlarning diniy ma'lumotlarga ega bo'lishlari va jamoat joylarida diniy ramzlardan foydalanish erkinligi ta'minlandi.

Oltinchidan, din ishlari bo'yicha boshqarma (DIYANET) ahamiyati va funksiyalari oshdi va turli davlat idoralari bilan hamkorlikda ushbu muassasani "dinni nazorat qilish" rolini o'ynagan muassasadan "jamiyatning diniy talablariga javob beradigan" muassasaga aylantirishga harakat qilindi.

“Adolat va taraqqiyot” partiyasi davrida Turkiyada e'tiqod erkinligi bilan bog'liq amalga oshirilgan asosiy islohotlarining asosiy yo'nalishlari:

- Diniy libos, xijobda yurishga ruxsat etilishi. Ma'lumki, Turkiyada 1925 yilda ayollarning hijob kiyishi rasman taqiqlagan birinchi musulmon mamlakati bo'ldi. Hijobda yurishni taqiqlashni bekor qilishga bir necha bor urinishlar qilingan. Birinchi marta 1984 yilda Turkiya Bosh vaziri Turgut Ozal yuritgan "Islom bilan yarashish" siyosati doirasida. Biroq, dunyoviy jamoatchilik bosimi ostida u 1987 yilda taqiqni yangilashga majbur bo'ldi. 2008 yilda Turkiya hukumati R.T.Erdo'g'an boshchiligida yana universitetlarda hijobga qo'yilgan taqiqni bekor qilishga urindi, ammo konstitutsiyaviy sud bu taqiqni qo'llab- quvvatladi. 2010 yilda taqiq bekor qilindi. 2013 yilda hukumat idoralarda musulmonlarning ro'molini taqiqlash bekor qilindi. Biroq, hijobni kiyishga taqiq xavfsizlik kuchlari, sud muassasalari (sudya, prokuratura) va harbiy tuzilmalar xodimlari uchun o'z kuchida qoldi.

- Davlat maktablarida xijobga ruxsat berilishi. 2014 yil sentyabr oyida Turkiya Bosh vazirining o'rinbosari Bulent Arinch o'rta maktablarning davlat maktablarida hijobda yurishga qo'yilgan ko'p yillik taqiq bekor qilinganini e'lon qildi.

- 2015 yil mart oyida Turkiya Oliy harbiy sudi harbiy qarorgoh va armiya ijtimoiy infratuzilmasi hududida harbiy xizmatchilarning qarindoshlari (turmush o'rtoqlari, qizlari va onalari) tomonidan hijobda yurish taqiqini bekor qildi.

- Maktablarda boshlang'ich diniy bilimga ruxsat etildi. 2012 yil bahorida Turkiya parlamenti Qur'on, Muhammad (s.a.v.) payg'ambarning sunnati va arab tilini boshlang'ich va o'rta maktablarda ixtiyoriy fan sifatida o'qitishni nazarda tutuvchi qonun loyihasini ma'qulladi. Agar 2004 yilda mamlakatda 73 mingga yaqin shunday maktab mavjud bo'lsa, o'n yil o'tib, 2014 yilda ularning soni 546 mingdan oshgan. Hozirda ularda tahsil oluvchilar soni 1 million 600 ming kishidan oshib ketgan.

Turkiya hukumati maktablarda "Din madaniyati va axloqni bilish" nomli majburiy kursni ham joriy etdi. To'rtinchi sinfdan to bitirguniga qadar turk bolalari sunniy islom va musulmon qadriyatlarini o'rganadilar. Kurs Xalq ta'limi muassasalari to'g'risidagi qonunning "dunyoviylik Turkiyada ta'lim uchun asosdir" moddasiga, shuningdek alaviylarning (diniy ozchilik, Turkiyada 1 millionga yaqin alaviylar mavjud) noroziliklariga qaramay joriy qilingan. Ular maktabda o'z farzandlariga o'z dinlarini majburlashga qarshi bo'lganlar.

Tanqidchilar e'tiroficha, R.T.Erdo'g'an "taqvodor avlod" tamoyillari asosida tarbiyalangan yoshlar hisobiga siyosiy tuzilmani yangilashni maqsad qilgan. Parlament saylovlarida qatnashish uchun yosh chegarasi 25 yoshdan 18 yoshgacha tushirildi.

- Tug'ilishni tartibga solish. 2012 yilda hukmron partiya mamlakatda tug'ilish darajasini oshirishga qaratilgan qonun loyihasini ishlab chiqdi. Qonunda to'rt haftadan so'ng abort qilishni taqiqlash ko'zda tutilgan edi. Dunyoviylik tarafdorlari bo'lgan turklar rasmiylarning taklifiga qarshi chiqishdi. Mamlakatda norozilik namoyishlari boshlandi. Qonun loyihasi hech qachon qabul qilinmagan. Turkiyada 1983 yilgi qonun o'z ishini davom ettirmoqda, unga ko'ra abort

homiladorlikning o'ninchi haftasidan oldin amalga oshirilishi mumkin va agar tibbiy kontrendikatsiyalar bo'lsa, keyinroq amalga oshirilishi mumkin.

- Masjidlar faol qurilishi. 2014 yildan beri Turkiya universitetlarida masjidlar faol ravishda qurila boshlandi. 2014 yilda Din ishlari bo'yicha idora (DIYANET) yaqin kelajakda universitetlar shaharchalarida 80 ga yaqin masjid qurilishi haqida e'lon qildi. "Turkiyada 20 milliondan ortiq yoshlar bor. Biz ularga erishmoqchimiz. Biz diniy rahbarlar yoshlar bilan bog'lanishlari mumkin bo'lgan universitet shaharchalarida joylashgan masjidning ahamiyatini tushunamiz. Biz yoshlarning ma'naviy rivojlanishini va masjidlarga kirishini istaymiz", - deb izohladi Din ishlari bo'yicha direksiya (DIYANET) rahbari Mehmet Germez. Shuningdek, Turkiya prezidenti R.T.Erdo'g'on Istanbuldagi Avliyo Sofiya ibodatxonasiga qaytadan masjid maqomini berish to'g'risidagi farmonga 2020 yil 10 iyulda imzo chekdi. Unga ko'ra, Turkiya Davlat kengashi hukumatning 1934 yilda qabul qilgan qarorini — Avliyo Sofiya masjidini muzeyga aylantirish to'g'risida — bekor qilib, ibodatxona qaytadan masjid sifatida ishlatilib, uning ustidan boshqarish vazifalarini Turkiyaning Din ishlari boshqarmasiga topshirdi. 1985 yilda muzey binosi YuNESKOning Jahon merosi ro'yxatiga kiritilgan. Muzey masjid sifatida o'z faoliyatini 2020 yil 24 iyuldan boshladi. Tabiiyki, ushbu farmon YuNESKO, Gresiya va G'arb davlatlarining noroziligiga sabab bo'ldi.

- Musulmon bo'lmagan jamiyatlar borasida siyosat. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, aholisining 99,8% musulmon, 90,5 ming musulmon bo'lmagan aholisi bo'lgan Turkiyada diniy qarashlar xaritasini beradigan ishonchli raqamlar mavjud emas. Turkiyada taxminan 10 000 baxay, 15 000 osuriyalik, 5000 yazidiy, 3300 Yahovaning guvohi, 3000 protestant va cheklangan miqdordagi nestorianlar, xaldeylar, maronitlar va boshqalar yashaydi. Respublikaning dastlabki davrida musulmon bo'lmagan aholining olib qo'yilgan huquqlari, 2000-yillarda kiritilgan qonunchilik qoidalari bilan tiklandi. Eng ahamiyatlisi, 1936 yildan keyin mol- mulki hibsga olingan ozchiliklarga 2011 yilda egalik huquqini tiklash to'g'risidagi qoidalar edi. Bundan tashqari, kamsitishlarning oldini olishga qaratilgan qonunchilik amalga oshirildi; irq, rang, til, din yoki e'tiqod bilan bog'liq kamsitish taqiqlangan. Ushbu davrda ko'plab ibodat joylari tiklandi yoki qayta ochildi. Ulardan eng mashxurlari Trabzonda Sumela monastiri, Mor Gabriel monastiri va Mardindagi Dayro d-Mor Hananyo siriya monastiri, Van shahridagi Muqaddas Xoch cherkovi, Karsdagi Muqaddas Havoriylar cherkovi, Edirne shahridagi Buyuk ibodatxona ... va boshqalar.

- "Adolat va taraqqiyot" partiyasi va "Xizmet" (Hizmet) tashkiloti munosabatlari. 2016 yilda Turkiyada harbiy to'ntarishga urinishdan so'ng, Turkiya rasmiylari Fathulloh Gulen va uning tarafdorlarini fitnani tashkil qilishda ayblashdi. Turkiyada F.Gyulen harakatining bir necha nomlanishlari mavjud: "Gyulen harakati" (Gülen hareketi), «Xizmet» (Hizmet), "Gyulen jamoati" (Gülen cemaati), "Fatxullachilar" (Fethullahçılar) va boshqalar. Hokimiyat, ularning fikriga ko'ra, gulenchilarning radikal qismi tashkilotini "Fethullahterror tashkiloti" ("Fethullahçı Terör Örgütü (FETÖ)") va "Parallel davlat shakllanishi" ("Turkcha Paralel Devlet Yapılandırması (PDY)"). 2016 yil 19 oktyabrda Islom hamkorlik tashkiloti ushbu tashkilotni terroristik deb tan oldi.

19-asrda pozitivizm va materializm harakatlariga qarshi dinni qo'llab- quvvatlagan va Naqshbandiya madrasalarida ta'lim olgan Said Nursining ta'limoti zamonaviy Turkiyadagi eng yirik Nur harakati uchun qo'llanma bo'ldi. A'zolar nashriyot, ommaviy axborot vositalari, ta'lim va siyosat kabi ko'plab sohalarda faol ishtirok etishdi. Uyg'onish harakati sifatida boshlanib, ijtimoiy harakatga aylangan bu harakat 1960 yilda Said Nursi vafotidan keyin bir nechta kichik guruhlariga ajratildi. Bular orasida eng taniqli va bahsli masalalar Fathulloh Gulen

boshchiligidagi guruh edi. Garchi u "Nur" harakatining bir qismi deb hisoblansa ham, Gulen Said Nursiyni "asrning aqlini yaratuvchisi" sifatida ko'rgan, ammo hech qachon Nur harakati ifodasini ma'qullamagan. Harakat ayniqsa ta'lim sohasida (140 dan ortiq mamlakatlarda bu harakat tarafdorlari tomonidan ochilgan 1400 ga yaqin maktab mavjud) va dinlararo muloqotni rivojlantirishda faoldir. Bundan tashqari, harakatga yaqin ommaviy axborot vositalari mavjud; moliya sanoatini rivojlantirish va tijorat tibbiyot klinikalarini ochishga intilmoqda.

1990-yillarda Gulen dinlararo muloqotlardagi faoliyati bilan ham tanilgan. Gulen harakati Turkiyadagi to'ntarishni qo'llab-quvvatlaydigan doiralarga ko'rsatgan etakchilik darajasida harbiy to'ntarishlardan eng kam ta'sirlangan diniy guruh bo'lishga muvaffaq bo'ldi. Ular 2000-yillarda, ayniqsa diniy guruhlar uchun jamoat joylari ochilganda, demokratik o'zgarishlarning eng katta foyda oluvchilaridan biri bo'lgan. Shunga qaramay, guruh davlat institutlarida, xususan ta'lim, politsiya, harbiy va sud tizimida tashkil topganidan va bu kuchdan Turkiya siyosatiga aralashish uchun foydalanishga urinib ko'rganidan keyin, harakatni nazorat qilishga urinishlari tufayli ko'proq tan olindi.

Demak, Turkiya jamoatchilik fikrida Turkiyaning siyosiy hayotida markaz va periferiya o'rtasidagi kurash sifatida kamalistlar va islomchilar o'rtasida kurash mavjud degan fikr mavjud. Biroq, haqiqiy kurash davlat va jamiyat o'rtasida. Ushbu ikkilamlilik eng yirik ijtimoiy guruhlarning siyosiy hayotda ishtirok etishdan chetlatilganligi bilan izohlanadi. ATP orqali ushbu chetlashtirilgan guruhlar siyosiy maydonning faol ishtirokchilariga aylanadi. Aholi ATPni nafaqat siyosiy partiya, balki aholining turli ijtimoiy qatlamlarini o'z ichiga olgan ijtimoiy tashkilot sifatida ham ko'rib chiqadi. ATP xalq partiyasidir, bu ularning kamolchi elitaga qarshi ovozi sanaladi. Turkiyadagi haqiqiy siyosiy hokimiyat 1960 yil 27 may, 1971 yil 12 mart, 1980 yil 12 sentyabr va 1997 yil 28 fevraldagi harbiy to'ntarishlar ortida turgan harbiy elita va armiyaga tegishli. ATP o'z dasturlarida yangi ijtimoiy munosabatlarni shakllantirish, va inson huquqlarini isloh qilish, siyosiy birlashmalar faoliyatini erkinlashtirish, ozchiliklar manfaatlarini himoya qilishi, demokratik erkinliklarni amalga oshirish, Turkiyaning Evropa Ittifoqiga a'zoligi jadallashtirish, din erkinligini kengroq ta'minlashga intilmoqda.

Islohlarni amalga oshirishga qaratilgan ushbu chaqiriqlarga qaramay, davlat elitasi davlat tuzilishi mohiyati va mohiyatini tubdan qayta qurishga tayyor emas. Ular uchun status-kvoni saqlab qolish ularning asosiy huquqidir, bu ATPning siyosiy maqsadiga ziddir. Bugun ATP rahbariyati qiyin dilemma oldida turibdi: islohotlar yo'lidan borish yoki yuqorida aytib o'tilgan status-kvoning bir qismi bo'lish. Bir tomondan, fuqarolik va harbiy elita ATPni o'zlarining ta'sir vositasi sifatida ishlatishga harakat qilmoqda. Boshqa tomondan, ATP liberal demokratik islohotlarni orzu qiladigan jamiyat tomonidan qattiq bosim ostida turibdi. Hozirda ATP Turkiyaning jamoat va siyosiy hayotidagi asosiy oqim hisoblanadi. Uning g'oyasi va mafkurasi islomiy mavzulardan ko'ra ijtimoiy, ijtimoiy-siyosiy masalalarga qaratilgan. ATPning o'zgarishi nuqtai nazaridan biz buni post- islomizmning yangi hodisasi deb aytishimiz mumkin. Turk tadqiqotchisi Xakan Yavuz ta'kidlaganidek, bu holat islomiy harakatlarni nisbatan demokratik tizimga qo'shilish imkoniyatining yaqqol namunasidir. Ushbu integratsiya jarayoni bu ikki dunyoqarash o'rtasidagi muvaffaqiyatli hamkorlikning dialektik jarayoni: "dunyoviylik - modernizm - universallik" aloqasining "islomizm - an'anaviylik - provinsializm" bilan kompleks sintezi va o'zaro ta'siri. Shunga ko'ra, ATP liberallashuv va globallashuvga qaratilgan dunyo miqyosidagi tendentsiya bilan bir qatorda ichki repressiv va demokratik omillar ta'sirida shakllangan.

Ta'kidlash joizki, desekularizatsiya jarayonining muhim tarkibiy qismi bu mamlakatda ijtimoiy va siyosiy hayotning jumbushga kelishidir. Gulenchilarni bostirish sharoitida kuchayib boradigan va nazoratning siyosiy vositalari sifatida faol foydalaniladigan jamoat tuzilmalari soni ko'paymoqda. Xususan, 2000- yillardan buyon Turkiyada islom moliya institutlarining roli o'sib bormoqda.

“Adolat va taraqqiyot” partiyasi faoliyatiga nisbatan tanqid: 2016 yil 15 iyuldagi davlat to'ntarishiga nisbatan urinish hamda uning ortidan boshlangan keng tozalashlar so'nggi yillarda R.T.Erdog'anning ichki va tashqi siyosati mamlakat ichkarisida va tashqarisida salbiy munosabatlarning shakllanganligini ham ko'rsatmoqda. Xususan 2017 yilgi referendum natijasida mamlakatda prezidentlik boshqaruvi to'liq joriy etildi. Siyosiy tizimda transformasiya yuz bermoqda. ATP tomonidan olib borilayotgan islohotlar juda chuqur va uzoq muddatli. "Go'yo ATP yangi hukumat tuzmaydi, balki davlatni qayta yaratadi", - deb yozadi turkiyalik professor U.Ozdog. "O'zining yagona partiyaviy tizimining ikkinchi davri" kitobida, bu kabi harakatlarni ATP rahbarlaridan biri Turkiyada "partiya gegemoni bo'lgan avtoritar tizim" ni yaratishga qaratilgan.

So'nggi yillarda R.T.Erdog'an tomonidan inson huquqlari, hokimiyatning bo'linishi, sud mustaqilligi, dunyoviylik va matbuot erkinligi, shuningdek, so'z erkinligi va uyushish erkinligini cheklandi.

ATPning kadrlar tuzilmasida keskin islohotlar boshlandi. Davlat resurslari va muhim vakolatlar yaqin odamlarga o'tkazilgandan so'ng, R. T. Erdo'g'anni qo'llab- quvvatlagan oila a'zolari va ishbilarmonlar, bu holatni tanqid qilgan kamolchilarlar, alaviylar, kurdlar va ziyolilar olib tashlandi. Boshqacha qilib aytganda, siyosiy islomning hokimiyat tepasiga kelishining birinchi tajribasi o'zining ijobiy tomonlari bilan birgalikda, salbiy jihatlarini ham namoyish etdi.

2018 yil 24-iyun kuni saylovlar bo'lib o'tdi, natijada Turkiya Buyuk Millat Majlisining 27-chaqirig'iga 600 yangi deputat saylandi. Bu safar partiyaning saylovchilar tomonidan qo'llab-quvvatlashishi pasaydi. 2018 yil 24 iyundagi saylovlarda ATP yana kerakli miqdordagi ovozlarni ololmadi, ammo muvaffaqiyatli strategiya tufayli Milliyatchi Harakat Partiyasi (MHP) va Buyuk Birlik Partiyasi ko'magida koalitsiya tuzildi hamda amalda hokimiyatda ATP o'z qo'lida saqlab qoldi.

Qozog'istonlik ekspert M.Laumulin e'tiroficha, Prezidentlik tizimiga yakuniy o'tish sodir bo'lgan 2019 yildan keyin Turkiyani nima kutayotganini tushunish uchun quyidagilarni ta'kidlash kerak:

Birinchidan, ichki siyosiy jihatdan siyosiy islomizm ohanglari "neo- kamalist"ga aylanadi, ya'ni boshqaruvning islomiy shakli avtoritar ko'rinishda kamolchilik elementlari bilan qorishib ketdi. Millatchilik tuyg'ulari yanada kuchayishi mumkin, ayniqsa mamlakat milliy xavfsizligiga tahdid kuchayib borayotganligi sababli. Yana shunisi qiziqki, Otaturk siyosining o'zi asta-sekin Turkiyaning siyosiy rejimi uchun yangi tasavvurlarni egallamoqda. Yaqinda aynan "millat otasi" mamlakatda siyosiy islomiylikni birlashtiruvchi vositalardan biriga aylandi. Shunday qilib, Turkiyada islomizm siyosiy loyiha sifatida yemirildi, "neo- kamalist paradigmalar"ga ega bo'ldi, deb aytish mumkin.

Ikkinchidan, tashqi siyosatda Turkiya rahbariyati, ehtimol, dunyoning turli mintaqalaridagi musulmon aholisi himoyachisi sanaladi va "neo-usmonlik" siyosati to'g'risidagi ilgari o'zi uchun juda muhim bo'lgan ritorikadan allaqachon voz kechmoqda. G'arb sheriklar bilan munosabatlarning yanada yomonlashishi fonida yuqori ehtimollik bilan Anqara, noaniqlik va



ma'lum ma'noda xavf tug'diradigan Evroosiyo mamlakatlari bilan aloqalarni chuqurlashtirish yo'lidan boradi. Yaqinda Anqara siyosatining ichki islomiy va tashqi Evroosiyo vektorlari o'rtasida ziddiyatni kuzatilishi mumkin, chunki bu mafkuralar turli xil dunyoviy turmush tarzini anglatadi.

Uchinchidan, davlat iqtisodiyoti faol o'sish bosqichida emas. Shuni taxmin qilish mumkinki, Turkiyadagi siyosiy islomizm hamkorlarning qaysi diniy mansubligidan qat'i nazar, har qanday yo'l bilan iqtisodiyot sohasidagi ittifoqchilarni izlaydi. Masalan, yaqin vaqtgacha Anqara Rossiya va Serbiyadan go'sht va tovuq go'shti olib kelishini tasavvur qilish qiyin edi.

Nihoyat, madaniy va ma'rifiy jihat. Rasmiylarning fikriga ko'ra, bu erda siyosiy islomizm loyihasi davlat siyosiy elitasi umid qilgan maqsadga erisha olmadi. Masalan, rasmiylarning fikriga ko'ra yangi o'quv markazlariga aylanishi kerak bo'lgan "imom-xatib" maktablarining ko'payishi. Demak, ushbu maktablarda dunyoviy xarakterdagi mavzular bilan bir qatorda diniy yo'nalishga oid mavzular ham mavjud. Biroq, statistika ma'lumotlariga ko'ra, imtihonlarda eng past o'rinlarni aynan shu maktablarning bitiruvchilari egallaydi. Madaniyat sohasiga hokimiyatning 2016 yildagi to'ntarishga urinishdan keyingi harakatlari salbiy ta'sir etdi, natijada intellektual migratsiya bir necha bor oshdi. Turkiya tarixida mamlakatni tark etgan ziyolilar soni hech qachon bu qadar ko'p bo'lmagan.

“Adolat va taraqqiyot” partiyasining salkam 20 yillik hukmronligi davrida Turkiyada davlat va din munosabatlari bo'yicha qo'yidagi asosiy jihatlarni sanab o'tish mumkin:

Birinchidan, “Adolat va taraqqiyot” partiyasi konservativ ruhdagi partiya sifatida xalqning birlamchi qadriyatlarini va an'analari qayta tiklashga e'tibor qaratildi. hijobdagi taqiqlarni olib tashlash, zinoni buzishga urinish, imomat maktablarini akademik tizimga to'liq qo'shish, jamoat hayotida Islomni ifoda etish erkinligini oshirish, islom bank tizimi ustida ishlash kabi ko'plab ijtimoiy-diniy siyosatni olib bordi. Usmonli ramziyligini qo'llab-quvvatlash. Bular bevosita islom qadriyatlarini bilan bog'liq va bu to'la asosda jamiyatning islomlashishini anglatmaydi;

Ikkinchidan, partiya siyosiy mavqeni saqlam qolish, siyosiy platformasini kengaytirish va kamolchilik tarafdorlari (harbiylar) ta'sirini kamaytirish maqsadida aynan yangiusmonchilik va diniy qadriyatlarga keng e'tibor qaratmoqda. Mazkur omil jamiyat tomonidan boshqaruvning avtoritarizm shakli kuchayishi sifatida qabul qilinib, jamoatchilikda norozilikni keltirib chiqardi: 2013 yilgi norozilik, 2016 yilgi davlat to'ntarishiga bo'lgan urinishlar shular jumlasidandir.

Uchinchidan, asosan siyosiy islomizm bilan bog'liq bo'lgan hozirgi Anqaradagi hukumat ichki siyosatda ancha avtoritar uslubga ega, tashqi siyosatda Evroosiyo tuyg'ularining kuchayishi kuzatilmoqda, iqtisodiy jihatdan - neoliberal yo'nalish, madaniy jihatdan esa islomiy tendentsiyalarning o'sishi yuz bermoqda.

Demak, mazkur omillar islomiy partiya hisoblangan “Adolat va taraqqiyot” partiyasi tomonidan Turkiyadagi sekulyarizmga qarshi keng qarshi keng islomlashtirish siyosatini olib borilishi anglatmaydi. Fikrimizcha, Turkiyada islom qadriyatlarini jamiyat madaniyatining bir qismi, milliy qadriyat sifatida aholining asosiy ehtiyojlarini qondirishga yo'naltiriladi, lekin siyosiy lashtirilishiga yo'q qo'yilmaydi.

## XULOSA

Turkiyada davlat va dinning munosabatlari tahlil etilib, quyidagi xulosalarga kelindi:

Birinchidan, “Adolat va taraqqiyot” partiyasi konservativ ruhdagi partiya sifatida xalqning birlamchi qadriyatlarini va an’analarini qayta tiklashga e’tibor qaratildi. hijobdagi taqiqlarni olib tashlash, zinoni buzishga urinish, imomat maktablarini akademik tizimga to’liq qo’shish, jamoat hayotida Islomni ifoda etish erkinligini oshirish, islom bank tizimi ustida ishlash kabi ko’plab ijtimoiy-diniy siyosatni olib bordi. Usmonli ramziyligini qo’llab-quvvatlash. Bular bevosita islom qadriyatlarini bilan bog’liq va bu to’la asosda jamiyatning islomlashishini anglatmaydi;

Ikkinchidan, partiya siyosiy mavqeni saqlam qolish, siyosiy platformasini kengaytirish va kamolchilik tarafdorlari (harbiylar) ta’sirini kamaytirish maqsadida aynan yangi usmonchilik va diniy qadriyatlarga keng e’tibor qaratmoqda. Mazkur omil jamiyat tomonidan boshqaruvning avtoritarizm shakli kuchayishi sifatida

qabul qilinib, jamoatchilikda norozilikni keltirib chiqardi: 2013 yilgi norozilik, 2016 yilgi davlat to’ntarishiga bo’lgan urinishlar shular jumlasidandir.

Uchinchidan, Turkiyaning islom dunyosidagi mavqeiga mamlakatdagi ichki siyosiy vaziyat ham, tashqi siyosatdagi ustuvor yo’nalishlar ham ta’sir qiladi. Musulmon mamlakatlar bilan aloqalardan uzoq vaqt chetlatilishi Turkiyaning tashqi siyosatining shakllanishiga salbiy ta’sir ko’rsatdi. Hozirda Turkiya uchun eng muhim muammo arab dunyosidagi mo’tadil mintaqaviy kuch sifatida uning rolini aniqlashdir. Liviya, Misr va Tunis kabi musulmon davlatlarida yuz bergan o’zgarishlar asosida Turkiyaning mintaqaviy va xalqaro siyosatini qayta ko’rib chiqish zarurati yuzaga kelmoqda.

To’rtinchidan, Turkiya o’ziga xos mintaqaviy, xalqaro va geosiyosiy aktor bo’lib qolmoqda. Uning "panturkizm" - turk dunyosi ishlariga ta’siri va qiziqishi shubhasizdir. Anqara Yaqin va O’rta Sharq, Bolqon, O’rta er dengizi, Kavkaz, Shimoliy Afrika va G’arbiy Osiyo kabi mintaqalarga ta’sir o’tkazishga imkon beradigan noyob geografik pozitsiya chuqur tarixiy ildizlarga va imperialistik an’analariga ega ushbu kuchga xalqaro miqyosda muhim element bo’lib qolishiga imkon beradi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Алиева И. Мягкая сила во внешней политике Турции Международные отношения и мировая политика, 2017.
2. Tank P. Turkey as a humanitarian actor: the critical cases of Somali and Syria // NOREF Report, 2015.
3. Асалыоглу А. Политический поворот в Турции: местные выборы 31 марта 2019 г
4. Yavuz, Hakan. Secularism and Muslim Democracy in Turkey. 2009.
5. Лаумулин М.Т. Место и роль Турции в современном мире. 2010.
6. 17 Jenny Barbara White. Islamist Mobilization in Turkey: a study in vernacular politics, University of Washington Press.. (2002).
7. В Турции отменили закон, запрещающий сотрудницам госучреждений носить на работе хиджаб // [https://www.ng.ru/world/2013\\_turkey.html](https://www.ng.ru/world/2013_turkey.html) - .2013.
8. Yavuz, H., and A. Yıldız. Modernleşen Müslümanlar: Nurcular, Nakşiler, Milli Görüş ve AK Parti. Istanbul: Kitap Yayınevi, 2005.

9. Yavuz M. H. Emergence of a New Turkey: Democracy and the AK Party. Salt Lake City: Utah University Press, 2006.
10. Co,skun, Vahap. 2013. Constitutional Amendments Under the Justice and Development Party Rule. Insight Turkey.